



BANK DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA CHAKANA BANK XIZMATLARINING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF RETAIL BANKING SERVICES IN GENERATING A BANK'S INCOME

¹Jo'rayev Jasur Ikromovich

¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada bank daromadlarini shakllantirishda chakana bank xizmatlarini rivojlantirish, yangi turdagi onlayn bank xizmatlarini joriy etish, AI texnologiyalari va mashina o'rganish kabi zamonaviy vositalardan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish orqali bank daromadini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bugungi kunda tijorat banklarining daromadlarini shakllantirish dolzarbligi shubhasiz AI texnologiyalariga bog'liqdir. Chunki mamlakat moliya tizimining muvaffaqiyatli ishlashi banklarda moliyaviy qarorlar qabul qilish hamda daromadlarni shakllantirishdagi mavjud muammolarni bartaraf etishga bevosita ta'sir qiladi. Mazkur maqolada shu muammolar va ularni hal etish bo'yicha muallifning yondashuv hamda takliflari keltirilgan.

Eng. - This article focuses on the development of retail banking services in the formation of bank income, the introduction of new types of online banking services, and increasing bank income by serving customers using modern tools such as AI technologies and machine learning. Also, the relevance of the formation of commercial banks' income today undoubtedly depends on AI technologies, since the successful functioning of the entire financial system of the country depends on it. The author presents the current problems in making financial decisions in banks and the formation of their income, as well as the author's approaches and proposals for their elimination.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ bank faoliyati, banklarning daromadlari, moliyaviy qarorlar, moliyaviy resurslar, moliyaviy aktivlar, pul mablag'lari, bankning moliyaviy strategiyasi, bankning moliyaviy xavfsizligi, strategik boshqaruv.

❖ banking, bank revenues, financial solutions, financial resources, financial assets, cash, financial strategy of the bank, Financial security of the bank, strategic management.

Kirish.

Tijorat banklarining moliyaviy daromadlari va xarajatlari banklarning turli tadbirkorlik faoliyatidagi jami daromadlari va xarajatlarini bildiradi. Tijorat banklarining moliyaviy yildagi moliyaviy daromadi ikki qismdan iborat: foiz daromadlari va operatsion daromadlar. Foiz daromadlari - bu milliy foiz

stavkasi bo'yicha aktivlar ko'rinishidagi turli fondlardan olinadigan foizlar. Operatsion daromad bank funktsiyalarini amalga oshirish va pul-kredit siyosatini amalga oshirish uchun qilgan turli operatsion xarajatlarini ifodalaydi. Tijorat banklarining yillik moliyaviy xarajatlari operatsion xarajatlarni, maxsus xarajatlarni va ma'muriy to'lovlarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari o'zlarining daromadlarini oshirishni faol rivojlantirmoqdalar, bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va jamiyat farovonligini oshirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmonida, "bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar" mavjudligi ko'rsatib o'tildi [1].

Xususan, har qanday tijorat tashkiloti singari bank ham o'z xizmatlarini sotish va bozorda raqobatbardosh bo'lishga harakat qiladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida kredit tashkilotlari aholiga o'zining yangidan-yangi xizmatlari va mahsulotlarni yaratib (joriy etib) ularni bozorda taklif etishmoqda. Aholiga chakana bank xizmatlarini taklif etish va ularni amalga oshirish banklarning bugungi kundagi faoliyatida istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lmoqda. Ayniqsa bu, aholining to'lovga layoqatliligi oshib borayotgan va bozor esa sust o'zlashtirilgan mintaqalarda juda qulaydir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda yetakchi iqtisodiy adabiyotlarimizda bank xizmatlari, mahsulotlari va operatsiyalari tushunchalari ko'p uchramoqda. Ushbu tushunchalarning nazariy asoslari, mohiyati, turlari va roli mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida u yoki bu jihatdan o'rganilgan. Iqtisodchi olimlar Yu.Korchagin, I.Lavrushin, G.Beloglazova, A.Tavasieva, S.Galiskaya, A.Ivanov, P.Rouz, Dj.Sinki va [2, 3, 4, 5, 6, 7, 8] boshqa olimlar

bank xizmatlari, mahsulotlari hamda operatsiyalar bo'yicha o'zlarining qarashlari va yondashuvlarini keltirib o'tishgan.

Tijorat banklari xizmatlari tarkibida chakana bank xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida «chakana bank biznesi» endi rivojlanib kelayotgan istiqbolli sohalardan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida tijorat banklarining chakana xizmatlari «Riteyl bank» tushunchasi bilan ommalashgan. Bugungi kunga kelib, chakana bank biznesi hamda riteyl bank tushunchalarini ajratish murakkablashib bormoqda. «Riteyl» so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, «chakana» ma'nosini anglatadi. Shunday ekan, chakana atamasining iqtisodiy ma'nosini va uning bank tizimidagi qo'llanilishini tahlil qilib chiqsak, bu atama aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda «chakana narxlar», «chakana savdo» tushunchalari bilan chambarchas bog'langan.

Tijorat banklari xizmatlari tarkibida chakana bank xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida «chakana bank biznesi» endi rivojlanib kelayotgan istiqbolli sohalardan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida tijorat banklarining chakana xizmatlari «Riteyl bank» tushunchasi bilan ommalashgan. Bugungi kunga kelib, chakana bank biznesi hamda riteyl bank tushunchalarini ajratish murakkablashib bormoqda. «Riteyl» so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, «chakana» ma'nosini anglatadi. Shunday ekan, chakana atamasining iqtisodiy ma'nosini va uning bank tizimidagi qo'llanilishini tahlil qilib chiqsak, bu atama aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda «chakana narxlar», «chakana savdo» tushunchalari bilan chambarchas bog'langan.

Chakana bank xizmatlari tushunchasi bugungi kunda noaniq, to'liq ta'rif berilmagan tushuncha hisoblanadi, chunki bu tushuncha yuzasidan iqtisodchilar turli xil fikr bildirishadi va aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda chakana

bank xizmatlariga to'liq ta'rif berilmagan. Haqiqatda ham tijorat banklari chakana xizmatlari tushunchasi O'zbekiston Respublikasining birorta ham normativ (yo'riqnoma) va qonunchilik hujjatlari to'plamida aniq ajratib ko'rsatilmagan, shunday ekan ushbu tushuncha yuzasidan har xil ta'riflar va fikrlar mavjud.

Ba'zi iqtisodchilarning maqolalarida chakana bank xizmatlari jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar yig'indisi, deb tushuntirilgan. Masalan F.Suyarovning «Chakana bank xizmatlari bozori» nomli maqolasida tijorat banklari chakana xizmatlariga quyidagicha ta'rif berilgan: «Riteyl bank – jismoniy shaxslar uchun ko'plab bank xizmatlarini yetkazib berishdir» [11]. Chakana bank xizmatlari tushunchasini «jismoniy shaxslarga bank xizmatlarini taqdim etish bo'yicha faoliyat», deb ajratish jiddiy ma'noda to'g'ri emas, chunki har qanday tashkilot jismoniy shaxslardan tashkil topgan va ularning aksariyati xohlasa-xohlamasa o'zlarining mijozlari bo'lgan jismoniy shaxslar bilan moliyaviy operatsiyalar olib borishlariga to'g'ri kelishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklari chakana xizmatlari bozorini mamlakat miqyosida (makro) va alohida olingan banklar misolida tahlil kilib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari xizmatlar bozori o'rganilar ekan, ularni quyidagi yo'nalishlarga bo'lib tahlil qilib chiqish mumkin:

- bankning jamg'arma operatsiyalarini baholash;
- banklar tomonidan aholini kreditlash holati tendensiyasi;
- xalqaro pul o'tkazmalari va holati;
- plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar dinamikasi tahlili va boshqalar.

1-jadval

AQSh va Kanada banklarida chakana bank xizmatlari tahlili [12]

Mamlakat	Ko'rsatkichlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
AQSh	Mobil bank foydalanuvchilari	70%	75%	80%	85%	90% ortiq
	Onlayn bank foydalanuvchilari (mln. kishi)	150 ortiq	160 ortiq	170 ortiq	180 ortiq	190 ortiq
	Elektron to'lovlar hajmi (trln. dol)	0,5	0,7	0,85	1,0	1,2
	Avtomatlashtirish va AI texnologiyalari (foizlarda)	25%	35%	40%	45%	60%
	Yashil kreditlar hajmi (mlrd. dol)	0,01	0,02	0,03	0,04	0,06
	Yashil kreditlar bo'yicha foydalanish (umumiy aholiga nisbatan)	25%	30%	33%	35%	40%
Kanada	Mobil bank foydalanuvchilari	80%	82%	85%	70%	75%
	Onlayn bank foydalanuvchilari (mln. kishi)	25 ortiq	30 ortiq	35 ortiq	38 ortiq	40 ortiq
	Elektron to'lovlar hajmi (trln. dollarda)	0,50	0,60	0,70	0,89	0,94
	Avtomatlashtirish va AI texnologiyalari (foizlarda)	-	30%	35%	40%	58%
	Yashil kreditlar hajmi (mlrd. dol)	0,05	0,10	0,10	0,15	0,25
	Yashil kreditlar bo'yicha foydalanish (umumiy aholiga nisbatan)	15%	20%	25%	30%	45%


Mamlakatimizda tijorat banklari chakana xizmatlari bozori endi rivojlanib kelayotgan yosh sohalardan biridir. Shunday ekan, uni takomillashtirishga mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy holat ham bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Bank tizimi moliyaviy imkoniyatlari (potensial) dinamikasining ijobiy bo'lishi chakana bank xizmatlari turlarini kengaytirishga, hajmining oshishiga, sifati yaxshilanishiga bevosita yordam beradi, chunki har qanday yangi bank xizmatlarini joriy etish va yangi texnologiya kiritilishi bankdan xarajatlarni talab etadi.

1-jadval dunyoda bank tizimi rivojlangan davlatlardan AQSh va Kanada banklari tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarni solishtirish natijasida qiyosiy tahlil etdik. AQShda mobil bank xizmatidan foydalanish Kanadaga qaraganda 15 foizga ortiq bo'lib 2023-yilda 90 foizni tashkil etmoqda. Onlayn foydalanuvchilar soni

AQShda 2019-yilda 150 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa 2023-yilga borib 40 mln. kishiga ortib 190 mln. kishini tashkil etmoqda. Kanada banklarida bu ko'rsatkich 2023-yilda 40 mln. kishini tashkil etmoqda. AQShda Yashil kreditlar bo'yicha foydalanish (umumiy aholiga nisbatan) 2023-yilda 40 foizni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich yillar mobaynida o'sish tendensiyasini nomoyon etmoqda. Aynan shu ko'rsatkich Kanada bank tizimida 45 foizni tashkil etganligi ham yashil kreditlash rivojlanayotganligidan dalolat berib turibdi.

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, "Ipoteka-bank" ATIBdagi davlat ulushining kamayishi, tijorat banklarining kapitallashuv darajasi oshishi hamda bank xizmatlari bozoriga 3 ta yangi bankning kirib kelishi jami bank sektori aktivlaridagi davlat ulushining 2022-yildagi 78 foizdan 68 foizgacha, jami bank kapitalidagi ulushining esa 78 foizdan 65 foizgacha pasayishiga xizmat qilgan.




1-rasm. Tijorat banklari kapitali va aktivlari daromadliligi tahlili [13] (foizda)

Bugungi kunga kelib, banklar tomonidan 250 dan ortiq bank xizmatlari taklif qilinmoqda. Bank xizmatlari turlarining ortishi bankka yanada ko'proq mijozlarni jalb qiladi. Axborot texnologiyalarining bank xizmatlariga kirib kelishi bilan banklarning masofaviy xizmatlari bugungi kundagi asosiy xizmatlar turiga aylanmoqda.

Xalqaro amaliyotda masofaviy xizmat turlari ancha ko'p bo'lib, ularning tajrabalarini


mamlakatimiz bank tizimida ham qo'llash ushbu xizmat turlarini yanada rivojlantirishga imkon yaratadi. Mahalliy to'lov tizimlari orqali valyutani konvertatsiya qilish, kobeyjing, Visa, Master card xalqaro to'lov kartalariga pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkoniyati mijozlar uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratadi. Bu ilovalar orqali foydalanuvchilar o'tkazmalarni 24/7 rejimda amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi.



2- rasm. Bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar [14] (trln. so‘m)

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmida Humo bankomatlarining ulushi 2020-yilda 17,4 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu

ko‘rsatkich 88,4 trln so‘mga yetib, 2022-yilda 33 foizdan 47 foizgacha oshgan. Uzcard bankomatlarining foizdagi ulushi 40 foizgacha oshib, 76,6 trln so‘mni tashkil etgan.



3-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni [14]

3-rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlari mijozlari soni tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. 2024-yilning sentyabr oyiga kelib, bunday xizmatlardan foydalanuvchilar soni 48,4 million kishiga yetgan, bu 2023-yilga nisbatan 23,1 foizga va besh yil avvalgi ko‘rsatkichga qaraganda 4,7 baravar ko‘pdir. Shuni ta’kidlash kerakki, foydalanuvchilarning asosiy qismini jismoniy shaxslar tashkil etadi. Ularning soni yil davomida 23,5 foizga, 5 yil

ichida esa 4,8 baravarga oshib, 47 millionga yetgan.

Masofaviy bank xizmatlarini ishlatadigan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni esa 2024-yil sentyabr holatiga ko‘ra, 1,4 million nafarni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 9,9 foizga, 5 yil avvaligiga qaraganda esa 2,3 baravar ortgan. Bu o‘zgarish, raqamli bank xizmatlarining yanada kengayishi va mijozlarga qulaylik yaratish borasida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar

natijasidir. Banklar tomonidan taklif qilinayotgan mobil ilovalar, onlayn to'lov tizimlari va boshqa masofaviy xizmatlar aholi orasida katta talabga ega bo'lmoqda, bu esa bank xizmatlarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Nazariy jihatdan qaralganda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarning riskiligi biroz yuqori, chunki yuridik shaxslardan ko'ra, jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini aniqlash va ajratilgan kredit bo'yicha kredit monitoringini olib borish murakkabdir. Jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarning ortishi bilan kredit byuro bazasidagi jismoniy shaxslar bazasi ma'lumotlari ham ortib

bormoqda. Yuridik shaxslardan farqli o'laroq jismoniy shaxslarda kreditga layoqatlilikni baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar, ya'ni kreditga layoqatlilikni aniqlash koeffitsientlari mavjud emas. Kredit riskini baholashdagi asosiy omillardan biri – mijozning kredit tarixi hisoblanadi. Kredit byurosida jismoniy shaxslar ma'lumot bazasining ortishi, kelgusida jismoniy shaxslar kreditga layoqatliligini baholashda muhim manba bo'lib, bu o'z navbatida muammoli kreditlarning oldini olishga imkon yaratadi. Rivojlangan mamlakatlarda banklar tomonidan kredit berilayotganda asosiy e'tibor berilayotgan manba – bu mijozning oldingi kreditlari to'g'risidagi ma'lumot hisoblanadi.

2-jadval

Milliy valyutadagi bank depozitlari va kreditlari bo'yicha foiz stavkalari [14] (o'rtacha tortilgan foiz stavkalar, yillik hisobda)

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
<i>Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari</i>	17,4	20,4	17,0	20,2	20,5	21,3	22,1
<i>Yuridik shaxslarning muddatli depozitlari</i>	14,6	16,6	15,7	15,1	16,7	18,5	16,8
<i>Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar</i>	23,2	28,1	21,8	21,4	23,0	25,1	24,4
<i>Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar</i>	22,4	24,3	20,4	21,5	21,5	22,9	22,4

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, tijorat banklari tomonidan Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlarga to'lanadigan foizlar bir muncha o'sib bormoqda xususan, 2019-yilda 17,4 foizni tashkil etgan bo'lsa 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 4,7 bandga ko'tarilib jami 22,1 foizni tashkil etmoqda. Buni tijorat banklari tomonidan depozit siyosati samarali yuritilishi bilan izohlash mumkin. Yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga to'ladigan foizlar tebranishga ega bo'lib bir muddat baland bir muddat pasayishini kuzatish mumkin. 2019-yilda 14,6 foizni tashkil etgan bo'lsa 2025-yilga kelib 2,2 bandga ko'tarilib 16,8 foizni tashkil etmoqda. Bu holat yuridik shaxslarning xisob raqamida pul mablag'larining ortishi va

aylanmasidan ortiq bo'lgan pul mablag'larini muddatli depozitlarga qo'yishi bilan izohlanadi.

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banki xizmatlarini tanlashda aholi asosiy e'tiborini bankning uzoq davrdan beri bozorda faoliyat olib borishi hisoblanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, bank xizmatlarining yuqori sifati va bank reytingi bo'yicha yuqori o'rinlarda turishi, aholi tomonidan bankni tanlashda unchalik katta ahamiyatga ega emas ekan.

Tijorat banklarining chakana xizmatlariga ta'sir etuvchi ichki omillarga esa bank faoliyati bilan bog'liq holatlarni kiritish mumkin.

Yirik tijorat banklarining jismoniy shaxslar bilan ishlashga qaraganda yuridik

shaxslar uchun xizmat ko'rsatishni afzal ko'rishlari. Tijorat banklari odatda kichik summalarda ko'p sonli mijozlar bilan, ya'ni jismoniy shaxslarga nisbatan yirik summalarda va bank uchun yuqori daromad keltiradigan yuridik shaxslar uchun amalga oshiriladigan operatsiyalar bilan faoliyat olib borishdan manfaatdorlar.

Tijorat banklari tomonidan mijozlar uchun ko'p sonli, lekin bir-biridan unchalik farq qilmaydigan operatsiyalar taklif qilinishi. Tijorat banklari tomonidan aholiga taklif etilayotgan omonatlar turlari ko'p xollarda bir-biriga o'xshashdir. Tahlillar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, mamlakat amaliyotida tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan depozitlar tarkibida «investitsion depozitlar» qo'llanilishi umuman kuzatilmadi. «Investitsion depozit» – bank depozitining alohida turi bo'lib, unda maksimal darajada daromad olish ko'zda tutiladi, lekin depozitga aniq foiz stavka belgilanmaydi. Ushbu depozitning odatiy depozitlardan farqi shundaki u ikki qismdan iborat. Bular: bazaviy omonat (standart bank omonati) hamda qo'shimcha omonat (payli investitsion

fondlarga qo'yilma). Oddiy qilib aytganda ushbu omonatga mablag' joylashtiruvchi mijoz o'zini investor deb hisoblashi mumkin. Payli investitsion fondlarga qo'yilma bank tomonidan fond bozorlariga joylashtiriladi, ya'ni turli kompaniyalar qimmatli qog'ozlari sotib olinadi. Bizga ma'lumki qimmatli qog'ozlar riskli bo'lishiga qaramay oddiy depozitlarga solishtirganda daromadliroq aktiv hisoblanadi.

Investitsion depozitlarning mijozlar uchun afzalligi haqida tuhtaladigan bo'lsak. Mijoz ushbu omonatning bazaviy omonat qismidan kafolatlangan daromadni qo'lga kiritadi, qimmatli qog'ozlar bo'yicha samarali oldi sotti operatsiyalarini tashkil etilishi mijozga yuqori daromad keltiradi, fond bozorida daromad olmoqchi bo'lganlardan moliyaviy bilimni talab qilinmasligi, shuningdek, bugungi kunda banklar mijozlar juda kam xujjat talab qilishadi.

Investitsion depozitlarning tijorat banklari uchun afzalligi esa, uzoq muddatli resurning vujudga kelishi, majburiyatlarning diversifikatsiyalashuvi, fond operatsiyalarini rivojlanishi bilan asoslanadi.

3-jadval

ATB "O'zsanoatqurilishbank"ning kredit turlari bo'yicha dinamika [14]

Nº	Ko'rsatkichlar (mln. so'm)	2019	2020	2021	2022	2023
1	Ipoteka kreditlar	1800808,4	2841769,5	3271593,8	3677044,6	5149164,2
2	Mikro qarzlar	387322,8	612790,5	445121,9	963215,3	1789354,5
3	Avtokreditlar	529149,8	434434,8	445658,8	738340,7	652148,4
4	Ta'lim kreditlari	-	-	-	76560,0	209793,4
5	Iste'mol kreditlari	251758,4	439350,6	59786,9	7011,5	13911,6

3-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, "O'zsanoatqurilish bank"da kredit turlari bo'yicha o'sish kuzatilgan. Ular ipoteka kreditlari bo'yicha 2019 yilda 1800808,4 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa yillar mobaynida faqatgina o'sganligini ko'rishimiz mumkin ya'ni 2023-yil yakuniga ko'ra 2019-yilga nisbatan 3348356 mln. so'mga ko'payib jami 5149164,2 mln. so'mni tashkil etgan bu holatni mamlakatimizda uy joyga bo'lgan talabning

ortishi bilan izohlash mumkin.

Yana bir holat bugungi kunda odamlar bir-biridan qarz olmasdan bankdan mikroqarz olish jarayonlari ko'payib bormoqda. Xususan bu ko'rsatkich 2019-yilda 387322,8 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakunlariga ko'ra 1402032 mln. so'mga ortib 1789354,5 mln. so'mni tashkil etgan. Ushbu holat bank chakana xizmatlari rivojlanishi bilan yuzaga kelishini ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Bank daromadlarini shakllantirishda chakana bank xizmatlarining ahamiyatini oshirish muhim hisoblanadi.

Chakana bank xizmatlari bozoriga ta'sir etuvchi, ichki va tashqi omillar o'rganilgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

- Mamlakatdagi iqtisodiy o'sish, barqarorlik chakana bank xizmatlariga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Respublikamizda oxirgi yillarda doimiy iqtisodiy o'sish, iqtisodiy barqarorlik kuzatilmokda;

- Tijorat banklari kapitallashuvi darajasining oshib borishi chakana bank xizmatlarini takomillashtirishga imkon

yaratadi;

- Mamlakatimizda aholi sonining yildan-yilga o'sishi, daromadlilik darajasining yaxshilanishi tijorat banklari chakana xizmatlari bozorining o'sishiga ham, chakana xizmatlarga bo'lgan talabning oshishiga ham imkon yaratadi;

- Yirik banklarga nisbatan, kichik va o'rta banklarda chakana mijozlarga e'tiborning yuqoriligi;

- Taklif etilayotgan chakana bank xizmatlari turlarining bir-biriga o'xshashligi va aholi tomonidan asosan an'anaviy bank xizmatlariga bo'lgan talabning mavjudligi, yangi bank xizmatlaridan foydalanish darajasi juda pastligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may kuni qabul qilingan "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.

2. Корчагин Ю.А. Деньги, кредит, банки. — М.: Феникс, 2006. — 312 с.

3. Лаврушин И.О. Банковское дело: розничный бизнес. — М.: Кнорус, 2010. — 762 с.

4. Белоглазова Г.Н., Крошевская Л.П. Банковское дело: учебник для вузов. — 2-е изд. — СПб.: Питер, 2008. — 400 с.

5. Тавасиева А.М. Дополнительные операции для клиентов. — М.: ФиС, 2005. — 416 с.

5. Галиская С.В. Деньги, кредит, банки: полный курс. — М.: Эксмо, 2008. — 336 с.

6. Иванов А.Н. Банковские услуги: зарубежный и российский опыт. — М.: ФиС, 2002. — 176 с.

7. Роуз Питер С. Банковский менеджмент. — М.: Дело, 1997. — 762 с.

8. Синки Джозеф. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. — М.: Альпина Паблишер, 2019. — 1018 с.

9. Sh.Shodmonov, R.Alimov, T. Jurayev «Iqtisodiyot nazariyasi» T. Moliya 2002-y. 171 b.

10. A.Ulmasov, M.Sharifxo'jayev T. «Iqtisodiyot nazariyasi» Mehnat 1995-y. 311 b.

11. Суяров Ф. Рынок розничных банковских услуг // Бозор, пул ва кредит. — 2002. — 8 августа. — С. 15.

12. https://www.growingscience.com/ac/Vol5/ac_2018_14.pdf

13. <https://new.openinfo.uz> - ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi. www.cbu.uz